

ZIYORAT TURIZMI TERMINLARINING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI QIYOSIY TAHLILI

Hoshimova Mohinurxon Muydinjon qizi

+99890 857 57 54

O'zDJTU, Filologiya: ingliz tili

2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15421674>

Annotatsiya: Mazkur maqolada terminologiyaga bag'ishlangan. Maqolada ziyorat turizmi terminlari va ularning ingliz va o'zbek tillaridagi izohiga to'xtalgan.

Kalit so'zlar: Terminologiya, termin, turizm, ziyorat, ziyorat turizmi terminlari.

Annotation: This article is devoted to terminology. The article focuses on the terms of pilgrimage tourism and their explanation in English and Uzbek languages.

Keywords: Terminology, term, tourism, pilgrimage, terms of pilgrimage tourism.

Tilshunoslikning taraqqiy etishida uning barcha bo'limlari birdek ahamiyatga ega. Bu bo'limlardan biri esa terminologiyadir. Hamma narsaning tarixi bo'lgani kabi o'zbek terminologiyasi ham o'ziga xos tarixga ega. Deyarli 14 asrlik tarixga ega bo'lgan terminologiyamiz bugungi holatga kelguniga qadar ko'plab leksik va tarkibiy o'zgarishlarga yuz tutdi. Arablarning O'rta Osiyoga uyushtirgan istilosi (VII asr)dan keyingi davr va keyinchalik davlatimiz hududining SSSR tomonidan bosib olinishi mazkur o'zgarishlarni yuzaga kelishida muhim rol o'ynagan. O'zbek terminologiyasi taraqqiyoti quyidagicha davrlashtirilgan:

1. **Qadimgi turkiy til terminologiyasi** (XI – X asrlar); 2. **Eski turkiy til terminologiyasi** (XI – XIV asrlar); 3. **Eski o'zbek adabiy tili terminologiyasi** (XV – XX asr boshi); 4. **Sho'rolar davri o'zbek tili terminologiyasi**; 5. **Istiqlol davri o'zbek tili terminologiyasi**. [5; 13]

Vatandoshlarimiz: Samixon Ashirboyev¹ va Ergash Fozilov², Rossiyalik tilshunoslar: Boris Nikolaevich Golovin, Valeriy Petrovich Danilenko, Владимир Моисеевич Лейчик va boshqalar o'z tadqiqotlari bilan mazkur soha rivojiga katta hissa qo'shgan. O'tkazilgan ko'plab izlanishlarga qaramay hozirgi paytda ham terminlarni aniq talqin qilish masalasi o'z dolzarbligini yo'qotgan emas.

Tilshunoslikda terminologiya sohasining rivojlanishi tilga ko'plab yangi so'zlarning kirib kelishi, mavjud so'zlarga qo'shimcha qo'shish va o'zgartirishlar kiritish orqali yangi ma'no hosil qilishga yordam beradi. Tilning leksik imloniyatlari kengligi esa uni boyishidagi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov bejizga tilni “Xalqning milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita” deb ta'riflamagan.

“Termin” lotincha *terminus* so'zidan olingan bo'lib “*chek, chegara, oxiri, had*” degan ma'nolarni anglatadi.³ Termin – bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga doir tushunchalarni ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi.

¹ <http://library.navoiy-uni.uz/files/ashirboyev%20samixon%20o'zbek%20dealiktologiyasi.pdf>

² https://uz.wikipedia.org/wiki/Ergash_Fozilov

³ <https://qomus.info/oz/encyclopedia/t/termin/>

TURIZM (fransuzcha: *tour* — sayr, sayohat), sayyohlik — sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan 1 yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi⁴. Turizm (Sayohat qilish) nafaqat insonlarning sog'ligiga, balki mamlakatlarning iqtisodiy salohiyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan hamkorligi turizmning rivojlanishi va bu sohaga yangi zamonaviy texnologiyalar kirib kelishiga yordam bermoqda.

Ziyorat – 1. Muqaddas joylarga, mozar va qabristonlarga borib sig'inish. 2. Hurmat yoki rasmiyat yuzasidan keksa, tabarruk kishilar, hurmatli zotlar huzuri-ga tashrif buyurib, ularning holidan xabar olish, ularni muborakbod qilish⁵. O'zbekiston har doim madaniyat beshigi, ularning kesishish nuqtasi bo'lib kelgan. O'tmishda bizning vatanimizda ibn Sino, Al-Buxoriy, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy kabi ko'plab ulug' zotlar yashagan. Hozirgi kunda ularning qabrini ziyorat qilish va ularning yashagan manzillarini ko'rish, qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun yurtimizga har yili turli mamlakatlardan mim=nglab sayyohlar tashrif buyurishadi.

Quyida ziyorat turizmiga aloqador bo'lgan ba'zi terminlarning o'zbek va ingliz tillaridagi izohi keltirib o'tiladi:

Ziyorat (Pilgrimage) - *O'tgan avliyolar orqali Qodir Tangriga murojaat qilish, ongi va ruhini tinchlantirish, muqaddaslik haqiqatini anglash, yolg'izlik va poklanish yo'lidan o'tish - devotional practice consisting of a prolonged journey, often undertaken on foot or on horseback, toward a specific destination of significance*⁶.

Hoji — *haj marosimlarini to'lato'kis bajargan shaxsning unvoni - the title of a person who fully performed the hajj rituals.*

Lavh - *qur'on (yoki istalgan kitob) o'qish uchun mohirona yasalgan kitob tutuvchi. - a skillfully made book holder for reciting the Qur'an (or any book).*

Maqbara (Mausoleum) - *biror mayitning jasadi joylashgan me'moriy inshoot yoki tosh tobut. - a stately or impressive building housing a tomb or group of tombs.*

Qibla (Qiblah) - 1. musulmonlar namoz o'qiyotgan paytda yuzini qaratib turadigan tomon. 2. Makka tomonga qaratilgan mehrobli devor. - *the direction of the Kaaba (the sacred building at Mecca), to which Muslims turn at prayer.*

Namoz - *Islom ko'rsatmalari bo'yicha bajariladigan mahsus ibodat turi. - a special type of prayer performed according to Islamic instructions.*

Masjid (Mosque) — musulmonlar jamoa bo'lib, namoz o'qiydigan joy, ibodatxona. — a place where Muslims pray together, a temple.

Ka'ba (Kaaba) - *Musulmon olamining muqaddas maskani - The holy place of muslim world*

Mehrob (Mihrab) - *masjidning Makka (Kaba)ga qarata yo'naltirib devor ichiga ishlangan sajdagoh - the shrine built into the wall of the mosque facing Kaaba.*

⁴ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Turizm>

⁵ <https://uz.wiktionary.org/wiki/ziyorat>

⁶ <https://www.nationaltrust.org.uk/features/what-is-a-pilgrimage>

Rasadxona (Observatory) - astronomik, geofizik, meteorologik va boshqa tadqiqotlar uchun maxsus jihozlangan ilmiy muassasa va shu muassasa joylashgan bino. - location used for observing terrestrial, marine, or celestial events.

Madrasa - Oliy o'quv dargohi. Ta'lim berish uchun maxsus qurilgan o'quv binosi. - Higher educational institution. Special built construction for educational purposes.

Gumbaz (a dome) - Suyri, fazoviy hajmdagi tom. - Is an architectural element similar to the hollow upper half of a sphere

Minora - Masjidlar ichiga yoki yoniga quriladigan, musulmon azonini aks ettirishga xizmat qiluvchi bino. - A building built inside or next to mosques, serving to reflect the muslim prayer call (adhan)

Xulosa

Ziyorat turizmi va undagi terminlar barcha xalqlar va dinlar uchun katta ahamiyatga ega. Ziyorat turizmi terminlari yordamida barcha xalqlar o'z dinlarida muqaddas maqomga ega bo'lgan makonlar va shuningdek u yerga tashrif davomida bajariladigan amallarning izohi haqida ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin. Muayyan bir dinga e'tiqod qiluvchilar dunyoning turli burchaklarida yashashi va boshqa-boshqa tillarda muloqot qilishini inobatga olsak, terminlarning qiyosiy tahlili ular uchun bu jarayonni osonlashtirishga yordam beradi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dadaboyev, Hamidulla. O'zbek Terminologiyasi: o'quvqo'llanma/ Hamidulla Dadaboyev. - Toshkent: Yoshlarnashriyot uyi, 2019. -138 b
2. Sirojidinova, D. B. (2022). BRIEF INFORMATION ABOUT THE HISTORY OF LINGUOCULTURALOLOGY. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 5(4), 131-134.
3. Xolmatova, O. O. K. (2023). O 'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA MIQDOR KONSEPTINING KOGNITIV XUSUSIYATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(7), 292-299.
4. "Qomus.info" internet sayti
5. "uz.wikipedia.org" internet sayti
6. "nationaltrust.org.uk" internet sayti
7. "uz.viktionary.org" internet sayti (Vikilug'at)